


### FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

\* tezkor ma'lumot (2020-il yanvar-aprel)

Hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlariga tarqalgan koronavirus (COVID-2019) pandemiyasi xalqaro integratsiyasining kamayishiga hamda davlat chegaralarning yopilishiga sabab bo'ldi. Bu esa viloyatning tashqi sohasi hamda aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

2020-yil yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 389,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 93,3% ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 130,2 mln. AQSh dollarga (-19,0 % ga pasaydi) va import hajmi 258,9 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati 1,4 % ga o'sdi) yetdi. Tashqi savdo saldosi -128,7 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.


**\*Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSh dollari)




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rmini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi. Jumladan, xomashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

### 2019-2020 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)

2019-yil yanvar-aprel



2020-yil yanvar-aprel



### Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor davlatlar orasidan beshta Davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan Xitoy Xalq Rspublikasi(85,9 mln. AQSH dollar), Rossiya Federatsiyasi (73,4 mln. AQSH dollar), Qozog'iston (86,1 mln. AQSH dollar), Qirg'iziston (44,1 mln. AQSH dollar), Turkiya (26,5 mln. AQSH dollar).

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % da
Xitoy	85,9	15,9	70,5	22,1
Rossiya	73,4	24,7	48,7	18,8
Qozog'iston	86,1	6,7	79,4	22,1
Qirg'iziston	44,1	33,1	11,0	11,3
Turkiya	26,5	14,1	12,4	6,8

Koreya Respublikasi	9,5	2,6	6,9	2,4
Misr	4,1	4,1	0,02	1,0
Polsha	6,4	6,2	0,2	1,6
Tojikiston	7,0	2,9	4,1	1,8
Ukraina	2,6	1,8	0,8	0,6

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 57,0 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 126,2 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 2019-yil shu davrga nisbatan 30,4 % pasaygan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 43,0 ga yetdi.


	Mln. AQSh dollarri	2019-yilning yanvar–apreliga nisbatan % da	Tashqi savdo aylanmasidag i ulushi, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>389,1</b>	<b>93,5</b>	<b>100</b>
MDH davlatlari	221,8	126,2	57,0
boshqa davlatlar	167,3	69,6	43,0
<b>Eksport</b>	<b>130,2</b>	<b>81,0</b>	<b>100</b>
MDH davlatlari	70,6	103,4	54,2
<b>boshqa davlatlar</b>	<b>59,6</b>	<b>64,6</b>	<b>45,8</b>
<b>Import</b>	<b>258,9</b>	<b>101,4</b>	<b>100</b>
MDH davlatlari	151,2	140,8	58,4
boshqa davlatlar	107,7	72,8	41,6
<b>Saldo</b>	<b>-128,7</b>	x	x
MDH davlatlari	-80,6	x	x
<b>boshqa davlatlar</b>	<b>-48,1</b>	x	x

### EKSPORT.

Hozirgi paytda yer yuzining deyarli barcha davlatlariga kirib borgan koronavirus (COVID-2019) pandemiyasi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, eksportning barqaror o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishishda to'siq bo'lmoqda.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda eksportyorlar soni 379 tani tashkil etib, ular tomonidan 130,2 mln. AQSH dollarlik eksport hajmi (2019-yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga pasaydi) amalga oshirildi. Eksport tarkibida tovarlar 99,8% ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (20,8 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (3,0%), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (1,3 %), paxta tolasi (0,6 %), qora va rangli metallar (0,1 %), mashina va uskynalar (0,2 %), shuningdek xizmatlar eksporti (1,7 %) va boshqalar (72,3 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollari)



### Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmiga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmiga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmiga nisbatan, % da
<b>Eksport</b>	<b>130,2</b>	<b>81,0</b>	<b>100</b>	<b>70,6</b>	<b>13,3</b>	<b>100</b>	<b>59,6</b>	<b>63,7</b>	<b>100</b>
Paxta tolasi	0,8	100,0	0,6	0,0	0,0	0,0	0,8	100	1,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	27,2	59,6	20,8	23,3	74,0	33,1	3,9	27,2	6,4
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	<b>3,9</b>	<b>3 M</b>	<b>3,0</b>	<b>3,4</b>	<b>3M</b>	<b>4,8</b>	<b>0,5</b>	<b>18,1 M</b>	<b>0,8</b>
Energiya manbaalari va neft mahsulotlari	1,7	31,1	1,3	0,8	26,0	1,2	0,9	37,5	1,6
Qora va rangli metallar	0,2	10,1M	0,1	0,2	9 M	0,2	0,03	12,0M	0,1
Mashina va asbob -uskunalar	0,3	169,8	0,2	0,3	190,1	0,4	0,0	0,0	0,0
<b>Xizmatlar</b>	<b>2,2</b>	<b>75,6</b>	<b>1,7</b>	<b>1,3</b>	<b>60,9</b>	<b>1,9</b>	<b>0,9</b>	<b>115,0</b>	<b>1,6</b>
<b>Boshqalar</b>	<b>93,9</b>	<b>89,1</b>	<b>72,1</b>	<b>41,3</b>	<b>136,0</b>	<b>58,5</b>	<b>52,6</b>	<b>70,1</b>	<b>89,5</b>

### Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (2019-yilga nisbatan, % da)




Shuningdek, tovar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan -19,0 % ga pasaydi.


Xizmatlar eksporti hajmi 2,2 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,7 % tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan (0,7 mln. AQSh dollar kamaydi) - 24,4 % pasayganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, sog'liqni saqlash, transport bo'yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

### 2019-2020 yanvar-aprel oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti (mln. AQSh dollari)



### Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-aprel)



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 61,7 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruqlaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### **Farg'ona viloyatining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O'rni	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Qirg'iziston	24,6	33,1	36,1	25,4	3	1
Rossiya	29,3	24,7	42,9	18,9	2	2
Xitoy	41,2	15,9	45,1	12,2	1	3
Turkiya	23,7	14,1	26,0	10,8	4	4
Qozog'iston	5,0	15,9	7,3	12,2	7	5
Polsha	6,7	6,2	7,3	4,8	5	6
Afg'oniston	1,7	4,4	1,9	3,4	13	7
Misr	2,7	4,1	2,9	3,1	11	8
Tojikiston	4,3	2,9	6,3	2,3	8	9
Koreya Respublikasi	2,0	2,6	2,2	2,0	12	10
Ukraina	4,2	1,8	6,2	1,4	9	11
Bangladesh	5,1	1,3	5,6	1,0	6	12
Marokko	0,6	1,0	0,6	0,8	14	13
Vietnam	3,1	0,9	3,4	0,7	10	14
Belorys	0,5	0,7	0,4	0,5	16	15
Belgiya	0,6	0,5	0,6	0,4	15	16

**Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar  
bilan eksport tarkibi**  
(yanvar-aprel)

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Qirg'iziston Respublikasi	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
<b>Jami eksport</b>	<b>29,3</b>	<b>24,7</b>	<b>24,6</b>	<b>33,1</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,2	5,5	20,6	11,8
Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buyumlar	0,02	0,01	0,6	2,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	1,0	0,0	0,5	0,3
Qora va rangli metallar	0,0	0,0	0,009	0,09
Mashina va uskunalar	0,07	0,2	0,01	0,0
Xizmatlar	2,1	1,2	0,03	0,05
Boshqalar	22,9	17,7	2,9	18,8

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2020-yilning yanvar-aprel oylarida jami 37,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 23,1 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan -27,0% pasaydi). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2020-yilning yanvar-aprel oylarida 27,6 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 10,7 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 ming tonnaga ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 6,6 ming tonna meva va rezavorlar 9,7 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,3 ming tonnaga ko'pdirdi.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi



Shuni aytilib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-aprel oyida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 23,1 mln. AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan – 27,0% ga kamaydi).

### Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2019-yil yanvar-aprel			2020-yil yanvar-aprel		
	Ming. tonna	Mln. AQSh doll.	Ulushi, % da	Ming. tonna	Mln. AQSh doll.	Ulushi, % da
Qozog'iston	7,6	3,2	10,0	11,3	5,3	23,1
Rossiya federatsiyasi	6,8	2,9	9,1	10,3	5,3	22,7

	Qirg'iziston	7,7	19,8	62,3	13,7	11,5	49,6
	Tojikiston	1,0	1,2	3,6	0,05	0,05	0,2
	Ukraina	7,2	2,3	8,7	0,8	0,5	2,1
	Xitoy XR	0,03	0,02	0,1	0,03	0,02	0,1

## IMPORT

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda importyorlar soni 888 tani tashkil etib, ular tomonidan 258,9 mln. AQSH dollarlik import hajmi (2019-yilning mos davriga nisbatan 1,4 % ga o'sdi) amalga oshirildi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbalari va neft maxsulotlari (30,2 %), mashina va asbob uskunalar (23,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (14,3 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (10,3 %), qora va rangli metall (7,2 %), import xizmati (1,4 %) hamda boshqalar (13,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollari)




### Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiylajmaga nisbatan, % da	mln AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiylajmaga nisbatan, % da	mln.AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiylajmaga nisbatan, % da
<b>Import</b>	<b>258,9</b>	<b>101,4</b>	<b>100</b>	<b>151,2</b>	<b>140,8</b>	<b>100</b>	<b>107,7</b>	<b>72,8</b>	<b>100</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	36,9	188,9	14,3	32,6	229,6	21,6	4,3	80,9	4,0
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	26,7	90,5	10,3	6,7	98,6	4,4	20,0	88,1	18,6
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	78,1	262,1	30,2	77,9	262,7	51,5	0,2	186,2	0,2
<b>Qora va rangli metallar</b>	18,7	57,5	7,2	11,5	74,4	7,6	7,2	42,4	6,8
<b>Mashina va asbob- uskunalar</b>	60,4	66,8	23,3	1,7	52,2	1,1	58,7	67,3	54,5
<b>Xizmatlar</b>	3,6	166,1	1,4	0,0	0,0	0,0	3,6	172,3	3,3
<b>Boshqalar</b>	34,5	67,1	13,3	20,9	54,5	13,8	13,6	104,1	12,6

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-aprel oylari davomida past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

### Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (2019-yilga nisbatan, % da)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,4 % ga ko'paydi.

### Farg'ona viloyatiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh dollarini.		Ulushi, % da		O'rni	
	2019-yil.	2020- yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
Qozog'iston	42,7	79,4	16,7	30,7	3	1
Xitoy	74,5	70,0	29,2	27,6	1	2
Rossiya	44,2	48,7	17,3	18,8	2	3
Turkiya	16,1	12,4	6,3	4,8	4	4
Qirg'iziston	10,8	11,0	4,2	4,2	6	5
Koreya	8,8	6,9	3,4	2,7	7	6
Tojikiston	6,5	4,1	2,5	1,6	8	7
Germaniya	10,9	3,4	4,3	1,3	5	8
Italiya	1,5	2,0	0,6	0,7	10	9
Ekvador	0,6	1,3	0,2	0,5	11	10


<b>Litva</b>	4,1	1,2	1,6	0,4	9	11
<b>Avstriya</b>	0,02	1,0	0,1	0,3	13	12
<b>Gonkong</b>	0,6	1,1	0,2	0,4	12	13

### Xizmatlar importi tarkibi, (%) da


2020-yil yanvar-aprel

Xizmatlar importi hajmi 3,6 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 1,4 % ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

### 2019-2020-yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2020-yilning yanvar-aprel oylari davri mobaynida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar hajmi o'tgan yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 3,4 mln. AQSh dollarga ko'p import qilindi va 258,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizga 51 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 9 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Germaniya, Italiya, Koreya Respublikasi va Tojikiston Respublikasi, hamkor davlatlaridan jami import hajmi 237,8 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 91,8 % ni tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:73-249-87-18**